

26-MAY

2023



Toshkent tibbiyot akademiyasi



Toshkent davlat stomatologiya instituti

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA IJTIMOIIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Google Scholar indexed

CYBERLENINKA

Google
scholar



Toshkent tibbiyot akademiyasi

www.tma.uz

Toshkent davlat stomatologiya
isntituti

www.tsd.uz

“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2023-yil 26-mayda Anjumanda Rostov davlat tibbiyot universiteti, X.A.Yassaviy nomidagi Xalqaro qozoq-turk universiteti, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va boshqa xalqaro hamda respublikaning nufuzli oliy ta'lim muassasalari hamkorligida tashkil etilgan konferensiya asosida tayyorlangan bo'lib, ushbu to'plam tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida Ijtimoiy fanlarni o'qitishdani muammolariga bag'ishlangan.

Keltirilgan dalillar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlarning haqqoniyligi uchun maulliflar mas'uldirlar.

Toshkent - 2023



ZAMONAVIY TIBBIY TA'LIMDA BIOETIKANI O'QITISHNING ZARURIYATI VA MUAMMOLARI

Feruza Sadullaevna Atamuratova

Falsafa fanlari nomzodi, Toshkent tibbiyot akademiyasi
Ijtimoiy fanlar kafedrasida dotsenti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tibbiy ta'limda Bioetikani o'qitishning zarurati va muammolariga bag'ishlangan bo'lib, unda Bioetikaning fan sifatida shakllanishi, tibbiy ta'limdagi ahamiyati va u bilan bog'liq bo'lgan muammolar xorijiy tajriba asosida qiyosiy tahlil etilgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekistonda Bioetikani o'qitishni rivojlantirish masalasi va u bilan bog'liq muammolar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Bioetika, falsafa, tibbiyot, ta'lim, o'qitish, dastur, insonparvarlik.

НЕОБХОДИМОСТЬ И ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ БИОЭТИКИ В СОВРЕМЕННОМ МЕДИЦИНСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Феруза Садуллаевна Атамуратова

Кандидат философских наук, доцент кафедры
Общественных наук Ташкентской медицинской академии

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена необходимости и проблемам преподавания биоэтики в медицинском образовании, в ней на основе зарубежного опыта проводится сравнительный анализ становления биоэтики как науки, ее значение в медицинском образовании и связанные с ней проблемы. Кроме того, освещается вопрос развития биоэтического образования в Узбекистане и связанные с ним проблемы.

Ключевые слова: Биоэтика, философия, медицина, образование, обучение, программа, гуманизм.

Bugun zamonaviy jamiyat shifokorga, birinchidan, yuqori darajadagi professional malakalarga va, ikkinchidan, axloqiy fazilatlariga ega bo'lmoq talabini qo'yimoqda. Shu sababli, tibbiyot



universitetlarining o'quv dasturlari nafaqat talabalar tomonidan kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, balki axloqiy fazilatlarini shakllanishtirish uchun maxsus fanlarni qamrab oladi.

Tibbiy ta'limda Bioetikani o'qitishning asosiy maqsadi mana shu ikkinchi talabni amalga oshirish uchun yo'naltirilgan bo'lib, uning vazifasi: tibbiyot, biologiya va jamiyatning rivojlanishi natijasida kelib chiqadigan axloqiy dialemlarni tahlil qilish va gumanistik dunyoqarash asosida hayotiy zarur qarorlarni qabul qilish uchun ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Shuning uchun ham hozirda Bioetikani o'qitish zamonaviy shifokorni tayyorlashda tibbiy ta'limning zarur tarkibiy qismiga aylandi.

Bioetikani o'qitish 1970 yillarning boshlarida AQSH tibbiyot maktablarida boshlangan bo'lib, nisbatan qisqa vaqt ichida deyarli barcha tibbiyot maktablarida joriy etilgan. Hozirda AQSH tibbiyot maktablari akkreditatsiyadan o'tishi uchun o'z o'quv dasturlariga Bioetikani kiritishlari shart hisoblanadi. Ko'pgina mamlakatlar o'z tibbiy ta'limlarida ushbu namunaga amal qilib kelmoqdalar.

Amerika Qo'shma Shtatlarida Bioetikani o'rganish uchun talabalar birinchi navbatda Bioetikaning asosiy tamoyillari bilan tanishadilar. Nazariy masalalarni o'rgangach, mavzuni amaliy qismiga o'tadilar. Amaliy qismda egallagan nazariy bilimlarini aniq vaziyatlarda qo'llay olishni o'rganadilar. AQShda Bioetika uchta tamoyilga asoslanadi: 1) shaxsning avtonomiyasini hurmat qilish; 2) zarar yetkazmaslik 3) yaxshilik qilish [1].

Kaunas tibbiyot universitetida Etika fani to'rt bosqichda o'qitiladi: bakalaviatura, magistratura, aspirantura va oliy ta'limdan keyingi bosqich. Bakalavriat bosqichida talabalar 4-kursdan boshlab Etika fanini o'rganadilar. Asosiy e'tibor biotibbiyot etikasi masalalariga, ayniqsa, shifokor va bemor o'rtasidagi munosabatlarga qaratiladi. Oliy ta'limdan keyingi bosqichda Bioetika muammolari tinglovchilarning mutaxassisligiga qarab farqlanadi. Litvaning tajribasi shuni ko'rsatadiki, Bioetikani o'qitish bo'lajak shifokorlarda axloqiy mas'uliyatni tarbiyalashga yordam beradi. *"Bioetika bo'lajak shifokorlarimiz ta'lim-tarbiyasida insonparvarlikni shakllantirish va ularni chinakam yetuk mutaxassis bo'lib yetishishi uchun zarur"* [2].

Latviyada Bioetika bo'yicha magistratura tashkil etilgan bo'lib, uni tugatgandan so'ng tinglovchilar tibbiyot huquqi bo'yicha diplom oladilar. Shuni ham ta'kidlash kerakki, Latviyada Bioetika tibbiyot institutlarining oltinchi kursida o'qitiladi. P. Straninya nomli Riga tibbiyot universitetida Bioetika kursi majburiy fanlar qatoriga kiritilgan [2].



Belarus tibbiy ta'limida Bioetikani o'qitish Belarus Respublikasi Bioetika qo'mitasi tavsiyasiga ko'ra tibbiy ta'lim tizimi dasturlariga kiritilgan [3].

Tbilisi tibbiyot universitetida Bioetika kursi bir semestr davomida o'qitiladi. U nafaqat talabalar uchun, balki amaliyotchi shifokorlar, aspirantura va qayta tayyorlov kurslari doirasida ham alohida dasturlar asosida o'qitiladi. So'nggi o'n yillikda Armaniston tibbiyot universitetlarida ham Bioetikani o'qitish rivojlanib bormoqda. Misol uchun, Yerevan tibbiyot universitetida Bioetikani o'qitish majburiy hisoblanadi.

Dog'iston davlat tibbiyot universitetida Bioetika mustaqil fan sifatida Davlat ta'lim standartlari ro'yxatiga kiritilgan bo'lib, uni oxirgi kurslarda o'qitiladi. Dog'istonliklarning fikricha, *“talabalar birinchi kursda kasalliklar haqida hali tasavvurga ega bo'lmaganlari sababli tibbiyot bilan bog'liq axloqiy muammolarni to'liq baholay olmaydilar. Bioetikani o'qitishni shunday tashkillashtirish kerakki, u bo'lajak shifokor va tibbiyot xodimlarini kasbiy tayyorgarligining muhim omillaridan biriga aylanishi zarur”* [2].

O'zbekiston Respublikasida Bioetika 2020-2021 o'quv yilidan boshlab barcha tibbiyot oliy o'quv yurtlarida o'qitib kelinmoqda. Bioetikaning fan sifatida shakllanishida akademik, O'zbekiston Qahramoni Malika Samadovna Abdullaxo'jaevaning xizmatlari katta.

Mustaqillikdan so'ng Respublika Sog'liqni saqlash vazirining buyrug'i (2000 yil 10 iyuldagi 370-son) bilan O'zbekistonda Milliy etika qo'mitasi tashkil etilgan bo'lib, unga akademik, O'zbekiston Qahramoni Malika Samadovna Abdullaxo'jaeva rahbarlik qilgan.

Shuni alohida aytib o'tish kerakki, Bioetika paydo bo'lgandan beri uni qaysa fan mutaxassislari o'qitishlari kerak? degan savol bahsli mavzulardan biri hisoblanadi. Bioetikaning mazmun-mohiyatini to'liq tushuntirib berish uchun o'qituvchi tibbiyot, biologiya, falsafa va huquq bo'yicha asosiy bilimlarga ega bo'lishi zarur.

Bizning fikrimizcha, Bioetikani o'qitishda quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

1. Fan umumiy (propedevtik) va maxsus (xususiy, klinik) qismlarga bo'linishi kerak.
2. Umumiy qismda o'qitishni falsafiy asoslardan, ya'ni Etikani o'qitishdan boshlash kerak.

Buning bir necha sabablari bor:

- 1) Etika axloqiy qadriyatlarning mohiyatini (yaxshilik, burch, adolat va b.) tushunishga yordam beradi;



2) axloqning falsafiy asoslari professional etikaning genezisi, evolyutsiyasi va qonuniyatlarini tushunish imkonini beradi;

3) o'tmishdagi axloqiy nazariyalar bilan tanishmasdan turib "bioaxloqiy dunyoqarash"ni shakllantirishning ilojisi yo'q.

"Kim ilmda olg'alab, axloqda orqada qolsa, uning foydasidan ko'ra zarari ko'poqdir"

(Gippokrat).

REFERENCES

1. Sovremennie nauchnie issledovaniya i innovatsii. 2016. № 6 // [Http://web.snauka.ru/issues/2016/06/67621](http://web.snauka.ru/issues/2016/06/67621)
2. Apresyan R.G., Shamov I.A. Problemi prepodavaniya bioetiki (materiali soveshaniya YUNESKO) // <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-prepodavaniya-bioetiki-materialy-soveshaniya-yunesko>
3. Denisov S.D., Zayats R.G., Yaroshevich S.P. Bioeticheskoe obrazovanie na doklinicheskom etape podgotovki vrachey v BGMU // Minsk: Visshaya shkola, 2010, № 2 (76) // Bioetika: voprosi i otveti // <https://www.bsmu.by>
4. Sostoyanie prepodavaniya bioetiki v sisteme meditsinskogo obrazovaniya gosudarstv-uchastnikov SNG: analiticheskiy obzor. - Sankt-Peterburg, 2010.
5. Biomeditsinskaya etika: slovar`-spravochnik / T.V. Mishatkina. [i tak dalee.]; izd. T. V. Mishatkina. - Minsk: BGEU. - 90 s. 2. Biomeditsinskaya etika: ucheb. posobie / T. V. Mishatkina [i dr.]; izd. T. V. Mishatkina, S. D. Denisova. - Minsk: BGMU, 2001. - 223 s.
6. Kubar` O.I., Mikirtichan G.L., Nikitina A.YE. Eticheskaya ekspertiza biomeditsinskix issledovaniy v stranax SNG (sotsiokul`turniy aspekt) // Feniks. - Sankt-Peterburg, 2007.
7. Fokin I.V. Sovershenstvovanie sistemi poslediplomnogo obrazovaniya vrachey – vajniy faktor povysheniya effektivnosti zdravooxraneniya // <https://cyberleninka.ru/article/n/sovershenstvovanie-sistemy-poslediplomnogo-obrazovaniya-vrachey-vazhnyy-faktor-povysheniya-effektivnosti-zdravooxraneniya/viewer>
8. Sorokina T.S. Istoriya meditsini. - Moskva, Akademiya, 2008.
9. Amirov N.X., Al`bitskiy V.YU., Nejmetdinova F.T. Meditsinskaya bioetika kak nauka i predmet prepodavaniya // Kazanskiy meditsinskiy jurnal. - 1998. - T. 79. - №2. - C. 81-86. doi: [10.17816/kazmj63635](https://doi.org/10.17816/kazmj63635)



10. Muxamedova Z.M. Rol` bioeticheskix komitetov v obespechenii garantiy sotsial`noy zashiti i bezopasnosti zdorov`ya v Uzbekistane. Vestnik Assotsiatsii vrachey Uzbekistana №2. - T., 2014. - S. 96-100.
11. Muxamedova, Zamira Muxamedjanovna, Dil`dor Gapparovna Cattarova, and Patma Tashpulatovna Xudaybergenova. "rol` gumanistiki v meditsinskom obrazovani i sovershenstvovani i professionalizma vrachey. Gumanitarniy traktat, 52 (2019): 19-23.
12. Мухамедова З. М., Атамуратова Ф. С. ПАНДЕМИЯ COVID-19 В УЗБЕКИСТАНЕ И НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЭТИКИ ВАКЦИНАЦИИ //Медицина и организация здравоохранения. – 2022. – Т. 7. – №. 2. – С. 82-88.
13. Atamuratova F.S., Sultanova A.R. (2021). Stanovlenie i razvitie bioetiki v Uzbekistane. Tibbiy ta'limda etika va integratsiya masalalari. Materiali mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferentsii, 16.02.2021, II-part, 16-19.
14. Norqulov S., Raximov M. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, Universitet, 2020. - 105 b.
15. Sarvar Otamuratov. The role of Youth in society. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities ISSN: 2249-7315, Vol. 11, Issue 9, September 2021, p. 38-43.



14. Абдуллаева, Р. М. (2023). КОММУНИКАТИВНАЯ НАПРАВЛЕННОСТЬ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ СТУДЕНТОВ-МЕДИКОВ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 79-85.

15. Латипова, Н. (2023). ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СОЦИЛЬНОЙ РАБОТЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 86-91.

16. Умирзакова, Н. А. (2023). БИОЭТИКА ФАНИ АКЦИОЛОГИК ВАЗИФАСИНИНГ ШИФОКОР КАСБИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ МУСТАҲКАМЛАШГА ТАЪСИРИ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 92-96.

17. Atamuratova, F. S. (2023). ZAMONAVIY TIBBIY TA'LIMDA BIOETIKANI O'QITISHNING ZARURIYATI VA MUAMMOLARI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 97-101.

18. Alimova, S. G. (2023). BO'LAJAK BOSHQARUVCHILARNI O'QITISHDA INTERAKTIV USULNI QO'LLASH ZARURATI VA ICHKI IMKONIYATLAR. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 102-105.

19. Yuldasheva, L. S. (2023). HYGIENE MEASURES IN IBN SINO'S WORKS. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 106-108.

20. Niyozova, N. S. (2023). TIBBIYOT OLIY O'QUV YURLARIDA O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISHNING DOLZARBLIGI VA UNI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINING O'RNI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 109-112.

21. Iskandarov, S. A. (2023). O'ZBEKISTON TARIXINI O'QITISH - YOSHLARDA TARIXIY TAFAKKURNI SHAKLLANTIRISHDA MUHIM OMIL. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 113-117.

22. Norqulov, D. T. (2023). TIBBIY OLIY O'QUV YURLARIDA IJTIMOY FANLARNI O'QITISHNING AHAMIYATI. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 118-121.

23. Абдурахманова, Н. Х. (2023). ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ ВА ДЕМОКРАТИЯ. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 122-124.

24. Ashrapova, M. M. (2023). YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOY ISH SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA OLIY TA'LIMDAGI MUAMMOLARNI BARTARAF ETISH. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 125-128.

25. Tashkenbayev, T. T. (2023). THE ROLE OF SOCIO-HUMANITARIAN DISCIPLINES IN THE FORMATION OF A MEDICAL WORKER OF MODERN EDUCATION. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 129-131.

26. Tashkenbayeva, D. (2023). FEATURES OF THE INTRODUCTION OF THE HUMANITIES STUDIES IN MEDICAL EDUCATION THROUGH THE STUDY OF THE HISTORY OF THE MEDICINE. *Current problems of teaching social sciences in higher medical educational institutions*, 4(1), 132-134.

